| Transport xizmatlari ko'rsatish biznes-jarayonlarini raqamli transformasiya talablari asosida takomillashtirish.....                                        | 333 |
| Komilov Asror Akmalovich                                                                                                                                    |     |
| Empowering the Future: Assessing the Role of Automation, Internet of Things (IoT), and Demand Management in Enhancing Energy Efficiency of Smart Grids..... | 338 |
| Khakimjanova Surayyo Khabibullayevna                                                                                                                        |     |
| Ta'lim jarayonida sun'iy intellektdan foydalanish tajribalari (xalqaro va mahalliy misollar) .....                                                          | 345 |
| Madaminov Shoxruxbek Ma'rufjon o'g'li                                                                                                                       |     |
| Zamonaviy sharoitlarda uy-joy fondini boshqarishning moliyaviy mexanizmini takomillashtirish .....                                                          | 352 |
| Inoyatova Durdona Shoxaydarovna, Karimova Aziza A'zamiddin qizi                                                                                             |     |
| Mijozlar tajribasini yaxshilashda raqamli integratsiya strategiyalari: "O'zbektelekom" AK tajribasi.....                                                    | 358 |
| Islamov Javlon Rasulovich                                                                                                                                   |     |
| Tijorat banklari orqali jinoiy yo'l bilan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish mexanizmlari.....                                         | 361 |
| Rustamov Sunnatillo Rustamovich                                                                                                                             |     |
| Yashil iqtisodiyot barqaror rivojlanish omili sifatida: Yevropa tajribasi.....                                                                              | 368 |
| Turobjanov Murodjon Maxammadjanovich                                                                                                                        |     |
| Ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka erishishda kichik biznes va mahalla hamkorligi modellarini takomillashtirish .....                                         | 373 |
| Murotov Nodir Xujamqulovich                                                                                                                                 |     |
| Xalqaro moliya institutlarining O'zbekiston bank sektori va iqtisodiyotiga ta'siri: YETTB faoliyati misolida tahlil.....                                    | 378 |
| Alimov Azizbek Alievich                                                                                                                                     |     |
| Bankrotlik xavfini tahlil qilish modellari.....                                                                                                             | 386 |
| Nasiriddinov Bahouddin Nuriddinovich                                                                                                                        |     |



|                                                                                                                                           |     |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Xizmat ko'rsatish korxonalarida sifat va samaradorlikni oshirishni takomillashtirish yo'llari.....                                        | 393 |
| <b>Burxonova Nargiza Mirshohid qizi</b>                                                                                                   |     |
| Iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonida bank tizimi islohotlari va ularni boshqarish strategiyalari.....                              | 400 |
| <b>Hamroyev Xurshid Jalilovich</b>                                                                                                        |     |
| “Temir yo'l transportida MHXSni joriy etishning ahamiyati va milliy standartlar bilan taqqoslama tahlili” .....                           | 405 |
| <b>Babaxalov Norbo'ta Eshnazarovich</b>                                                                                                   |     |
| Banking and financial services in the process of economic development digitalization and its advantages and security of the process ..... | 409 |
| <b>Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, Baxanurov Oqil Odil og'li</b>                                                                        |     |
| Kichik biznesda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashdagi asosiy muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari.....                            | 416 |
| <b>Abduvosit Omonboyev</b>                                                                                                                |     |
| “Futurologiya va mintaqaviy iqtisodiy transformatsiya: Markaziy Osiyoda O'zbekistonning strategik senariylari” .....                      | 421 |
| <b>Siddiqov Abdusalom Abdumalikovich</b>                                                                                                  |     |
| Kichik biznes subyektlarini bank kreditlari orqali qo'llab-quvvatlashning rivojlangan xorijiy davlatlar tajribalari.....                  | 425 |
| <b>Irgasheva Nigora Akbarovna</b>                                                                                                         |     |
| Туристская мобильность стран персидского залива как устойчивый и перспективный источник въездного туризма в Узбекистан .....              | 434 |
| <b>Додиев Феруз, Голышева Елена Вячеславовна</b>                                                                                          |     |
| Turistik erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya loyihalarini amalga oshirish: Imkoniyatlar, muammolar va istiqbollar .....                | 443 |
| <b>Xoliqov Dostonbek Rustam o'g'li</b>                                                                                                    |     |
| Oliy ta'limda davlat-xususiy sheriklik: moliyalashtirish modelini modernizatsiya qilish yo'nalishlari.....                                | 449 |
| <b>Bozorov Alisher O'zimurotovich</b>                                                                                                     |     |
| Xalqaro raqamli intergatsiya, raqamlashtirish sharoitida tijorat banklari faoliyati tahlili .....                                         | 455 |
| <b>Turapov Bahromjon Alisher o'g'li</b>                                                                                                   |     |
| To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar – iqtisodiyot taraqqiyotining muhim omili.....                                                 | 461 |
| <b>Mamatkulova Nodira Maxkamovna</b>                                                                                                      |     |
| Davlat xaridlari ishtirokchilarining elektron-skoring tizimi.....                                                                         | 465 |
| <b>Mamasoliyev Abrorbek Abdug'ani o'g'li</b>                                                                                              |     |



# DAVLAT XARIDLARI ISHTIROKCHILARINING ELEKTRON-SKORING TIZIMI



**Mamasoliyev Abrorbek Abdug'ani o'g'li**

Namangan davlat texnika universiteti

mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: [Abrorbekmamasoliyev1990@gmail.com](mailto:Abrorbekmamasoliyev1990@gmail.com)

ORCID: 0009-0008-7772-3561

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida davlat xaridlari ishtirokchilarini baholash bo'yicha joriy etilgan elektron skoring tizimining mazmuni, baholash mezonlari va amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, tizimning shaffoflik, samaradorlik va raqobat muhitiga ta'siri ko'rib chiqilib, uni takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar ilgari surilgan.

**Kalit so'zlar:** davlat xaridlari, elektron skoring, ishonchlilik darajasi, baholash tizimi, raqobat.

**Abstract:** This article analyzes the structure and practical relevance of the electronic scoring system introduced in Uzbekistan to assess participants in public procurement. It highlights key evaluation criteria, the system's impact on transparency, efficiency, and competition, and proposes practical recommendations for further improvement.

**Key words:** public procurement, electronic scoring, reliability level, evaluation system, competition.

**Аннотация:** В статье рассматривается содержание и практическое значение внедрённой в Узбекистане электронной скоринговой системы оценки участников государственных закупок. Анализируются её принципы, критерии оценки, а также влияние на прозрачность, эффективность и конкурентную среду. Предложены конкретные меры по совершенствованию механизма.

**Ключевые слова:** государственные закупки, электронный скoring, уровень надёжности, система оценки, конкуренция.

## KIRISH

Hozirgi davrda O'zbekiston Respublikasida davlat xaridlari tizimini samarali, shaffof va raqobatbardosh qilish bo'yicha izchil islohotlar olib borilmoqda. Davlat budjeti mablag'laridan oqilona foydalanish, korrupsiya xavfini kamaytirish, ishonchli yetkazib beruvchilar bilan hamkorlikni mustahkamlash davlat xaridlari jarayonining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvarda "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-16-son<sup>1</sup> Farmoniga muvofiq joriy etilgan elektron skoring tizimi davlat xaridlarining sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Skoring tizimi — bu xarid ishtirokchilarining ishonchligini aniqlashga qaratilgan avtomatlashtirilgan reyting baholash mexanizmi bo'lib, u ishtirokchilarning avvalgi faoliyati, shartnoma intizomi, moliyaviy barqarorligi, texnik salohiyati va boshqa mezonlar asosida ball tizimi orqali baholanadi. Ushbu tizim davlat xaridlari ishtirokchilari o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, yetkazib beriladigan mahsulotlar va xizmatlarning sifatini oshirish, shuningdek, ishtirokchilarni motivatsiyalovchi yangi mexanizmlarni joriy etish imkonini beradi.

<sup>1</sup> <https://lex.uz/uz/docs/-7369703>



O'z navbatida, davlat xaridlaridagi ishtirokchilar sonining ortib borayotgani va ularning sifati o'rtasidagi tafovut tizimda tartibga soluvchi vositalarni zarur etmoqda. An'anaviy tender baholash usullari bunday katta miqyosdagi subyektlar faoliyatini chuqur va xolis tahlil qilishda yetarli emas. Shu bois, elektron skoring tizimi orqali xarid jarayonlarida qatnashayotgan tashkilot va tadbirkorlar o'z reyting ko'rsatkichlariga qarab baholanishi, baholash natijalariga qarab ularga turli imtiyozlar yoki cheklovlar qo'llanishi ko'zda tutilmoqda. Bu esa ularning kelgusidagi harakatlarini izchil va intizomli tarzda olib borishga turtki beradi.

Mazkur tizim nafaqat davlat tomonidan tartibga solish vositasi sifatida, balki ishtirokchilarning o'zlarining bozordagi nufuzi va imijini shakllantirish vositasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumotlarning ochiqligi, baholashning avtomatlashtirilganligi va aniq mezonlarga asoslanishi tizimga bo'lgan ishonchni oshiradi hamda subyektlarning xatti-harakatlarini prognoz qilish imkonini beradi.

Ushbu maqolada davlat xaridlari ishtirokchilarining elektron skoring tizimi mazmuni, baholash mezonlari, qo'llaniladigan imtiyoz va cheklovlar, shuningdek, ushbu tizim orqali davlat xaridlarida qanday natijalarga erishish mumkinligi tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor skoring tizimining samaradorlik, adolatli raqobat va ishonchlilik muhitini shakllantirishdagi o'rniga qaratiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Davlat moliyasini boshqarish, g'aznachilik tizimini rivojlantirish va davlat xaridlarini takomillashtirish borasidagi muammolar ilmiy hamda amaliy jihatdan ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan bo'lib, ular ushbu yo'nalishdagi nazariy va metodologik asoslarni ishlab chiqqanlar. Jumladan, mazkur sohadagi muammolar va ularning yechimlari Sultonov B.S., Xodjayev U.T., G'ulomov S.S., Yo'ldoshev R.H., Qutbiddinov A.M., Xayitov I.A., Yunusov X.Sh., Komilov I.M., Xasanov B.B., Karimov J.S., Krotova I.M., Shabunina N.A., Grebnev A.I., Lavrushin O.I., Mankovskaya N.I., Lyutov A.G., Demidov I.A., Tarasova V.S., Kolesnikov A.A., Toxirov D.T., Richard A. Musgrave, Joseph E. Stiglitz, Allen Schick, Richard M. Bird, Robert D. Behn, Naomi Caiden, Jean-Jacques Laffont, Michael Keen, Vito Tanzi va Timothy Irwin kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida o'z ifodasini topgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada davlat xaridlari ishtirokchilarining elektron skoring tizimini tahlil qilishda normativ-huquqiy hujjatlar, xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-16-son Farmoni va unga asoslangan Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori asosiy manba sifatida o'rganildi. Tizimning asosiy funksiyalari, baholash mezonlari, ishtirokchilar uchun yaratiladigan imtiyozlar va cheklovlar hujjat asosida kontent-tahlil usulida tahlil qilindi. Shuningdek, skoring tizimining ishlash mexanizmini tushunish uchun baholash formulalari, reyting tizimi va avtomatlashtirilgan portal ishlash prinsiplari konseptual model sifatida o'rganildi.

Uslubiy yondashuvda tizimning maqsadi, samaradorlikka ta'siri va amaliy qo'llanish doirasi ilmiy-tahliliy yondashuv asosida ko'rib chiqildi. mavzuga oid ilgari e'lon qilingan iqtisodiy hamda boshqaruv sohasidagi tadqiqotlar bilan solishtirma tahlil o'tkazilib, O'zbekiston tajribasi boshqa davlatlardagi shunga o'xshash reyting mexanizmlari bilan kontekstual ravishda qiyoslandi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasida joriy etilgan elektron skoring tizimi davlat xaridlari ishtirokchilarining ishonchligini baholashda yangi bosqichni boshlab berdi. Mazkur tizim orqali ishtirokchilar har bir xarid jarayonidagi faoliyati asosida avtomatik tarzda ball bilan baholanadi va ularning ishonchlilik darajasi aniqlanadi. Tizim ishtirokchilarning faoliyatini xolis, shaffof va avtomatlashtirilgan mexanizm asosida tahlil qilish imkonini beradi.

Baholash natijalari asosida ishtirokchilar quyidagi to'rt toifaga ajratiladi: yuqori, o'rta, past va quyi ishonchlilik darajalari. Masalan, "AAA" reytingiga ega ishtirokchilar uchun zakalat talab qilinmaydi va oldindan to'lov miqdori yuqoriroq belgilanadi, bu esa ularning moliyaviy likvidligini oshiradi hamda motivatsiyasini kuchaytiradi. Aksincha, quyi darajali ishtirokchilarga qat'iy cheklovlar qo'yiladi, ular faqat kichik hajmdagi xaridlarda ishtirok eta oladi va ulardan yuqori miqdorda zakalat undiriladi.

Shuningdek, tizimda yangi ishtirokchilarni rag'batlantirish uchun ular ilk olti oy davomida har bir mezon bo'yicha maksimal ballning 40 foizi miqdorida vaqtincha ballga ega bo'ladilar. Bu esa boshlovchi tadbirkorlarning tizimga integratsiyasini osonlashtiradi. Portalga kiritilgan baholash natijalari har kuni yangilanadi va oxirgi 365 kunlik faoliyat asosida shakllanadi. Bu ishtirokchilarga o'z faoliyatini doimiy ravishda monitoring qilish, strategik qarorlar qabul qilish va holatini yaxshilash imkonini beradi.

Ishonchlilik darajasi yuqori bo'lgan subyektlarga "Eng faol tadbirkor" tanlovlarida ustuvorlik berilishi raqobatbardosh muhitni kuchaytiradi. Tizim orqali davlat xaridlari jarayonining sifat ko'rsatkichlari, shartnoma



intizomi, xizmat sifati va moliyaviy barqarorlik omillari birlashtirilib, ishtirokchilarning real salohiyati aniqlanadi. Bunda baholash faqat rasmiy ma'lumotlar va idoralararo integratsiyalashuv platformalari orqali to'plangan ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi, bu esa subyektiv yondashuvlarning oldini oladi.

Natijada, elektron skoring tizimi nafaqat davlat xaridlarini shaffoflashtirishga xizmat qilmoqda, balki tadbirkorlar uchun o'zini rivojlantirishga yo'naltirilgan turtki vositasi sifatida ham faoliyat yuritmoqda (1-jadval).

1-jadval. Davlat xaridlari ishtirokchilarining ishonchlilik darajasi va skoring ballari

| Ishonchlilik darajasi | Reyting belgisi | Ball oraliği (Umumiy) | Asosiy imtiyozlar / cheklovlar                                |
|-----------------------|-----------------|-----------------------|---------------------------------------------------------------|
| Yuqori                | AAA             | ≥ 80                  | Zakatlat yo'q, 30% oldindan to'lov, vositachilik yig'imi –50% |
|                       | AA              | ≥ 75                  | Zakatlat yo'q, 25% oldindan to'lov                            |
|                       | A               | ≥ 70                  | 50% zakatlat, 20% oldindan to'lov                             |
| O'rta                 | BBB             | ≥ 60                  | Chegara imtiyozlar                                            |
|                       | BB              | ≥ 50                  |                                                               |
|                       | B               | ≥ 40                  |                                                               |
| Past                  | CCC             | ≥ 30                  | 2 000 BHMgacha xaridlarda qatnashish, zakatlat ×1.5           |
|                       | CC              | ≥ 20                  | 1 000 BHMgacha, zakatlat ×1.5                                 |
|                       | C               | ≥ 10                  | 500 BHMgacha, zakatlat ×1.5                                   |
| Quyi                  | D               | < 10                  | 250 BHMgacha, zakatlat ×2, to'g'ridan-to'g'ri shartnoma YO'Q  |

Manba: Vazirlar Mahkamasi qarori (2025). Davlat xaridlari ishtirokchilarining elektron-skoring tizimini yuritish tartibi. regulation.adliya.uz.

Elektron skoring tizimida ishtirokchilarning ishonchlilik darajalari ballar asosida aniqlanadi va "AAA"dan "D" gacha reyting beriladi. Ball yuqori bo'lsa, imtiyozlar ko'p, ball past bo'lsa — cheklovlar kuchli bo'ladi. Masalan, "AAA" reytingli ishtirokchilarga zakatlat kiritish talab qilinmaydi, oldindan to'lov miqdori yuqori, vositachilik yig'imi esa kamaytiriladi. Aksincha, "C" yoki "D" reytingdagilar faqat kichik hajmdagi xaridlarda qatnasha oladi va ulardan yuqori miqdorda zakatlat talab qilinadi. Bu yondashuv ishtirokchilarni halol va mas'uliyatli bo'lishga undaydi hamda tizimda raqobat va sifatni oshiradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston Respublikasida joriy etilgan elektron skoring tizimi davlat xaridlari jarayonida ishtirok etuvchi subyektlarning ishonchligini baholashda zamonaviy, shaffof va samarali mexanizm bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu tizim orqali ishtirokchilarning oldingi faoliyati asosida ballar belgilanadi va reyting darajasi aniqlanadi. Natijada, davlat xaridlarida qatnashuvchilarga nisbatan adolatli yondashuv, rag'batlantirish yoki tartibga solish choralarini qo'llash imkoni yaratiladi.

Skoring tizimi nafaqat budjet mablag'larining maqsadli sarflanishini ta'minlaydi, balki tadbirkorlar orasida sog'lom raqobat muhitini shakllantiradi.

Elektron skoring tizimi samaradorligini yanada takomillashtirish hamda davlat xaridlari sohasini mustahkamlash yuzasidan quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Birinchidan, yuqori baholangan ishtirokchilar uchun moliyaviy va protsessual yengilliklar nazarda tutilgan bo'lsa, past reytingdagilarni tartibga chaqiruvchi mexanizmlar ishlab chiqilishi lozim. Bu tizim tadbirkorlarni o'z faoliyatini intizomli va sifatli olib borishga undaydi.

Ikkinchidan, xarid oyida ayni turdagi mahsulotlarni bo'lib-bo'lib xarid qilish holatlarini avtomatik tarzda aniqlab, cheklov qo'yuvchi dasturiy modulni joriy etish; bu ortiqcha xarajatlar va sun'iy tender ajratish holatlarining oldini oladi.



Uchinchidan, pudratchi tomonidan yetkazib berish muddati buzilganda yoki buyurtmachi tomonidan mahsulotni asossiz rad etishda har ikki tomonga nisbatan huquqiy javobgarlikni belgilovchi tartib ishlab chiqilishi zarur.

To'rtinchidan, xarid komissiyasi tarkibiga Raqobatni rivojlantirish boshqarmasi mutaxassisini majburiy tartibda kiritish orqali baholash jarayonining xolisligi va mustaqilligi ta'minlanadi.

Elektron skoring tizimi nafaqat davlat xaridlarining sifatini oshiradi, balki barcha ishtirokchilarni halollik, samaradorlik va javobgarlikka undaydi. Yuqorida keltirilgan takliflar esa ushbu tizimni yanada mukammallashtirish va amaliy natijadorligini oshirishga xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni (2025). *PF-16-son: "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"*. Toshkent: Lex.uz.
2. Vazirlar Mahkamasi qarori (2025). *Davlat xaridlari ishtirokchilarining elektron-skoring tizimini yuritish tartibi*. regulation. adliya.uz.
3. OECD (2021). *Public Procurement Toolbox: Supplier Scoring and Ranking Systems*. Paris: OECD Publishing.
4. World Bank (2022). *Digital Procurement and Public Sector Efficiency*. Washington, DC: World Bank.
5. Transparency International (2023). *E-Procurement Systems: Reducing Corruption through Technology*. Berlin: TI.
6. Nurmatov, A. (2023). *Raqamli iqtisodiyot sharoitida davlat xaridlarini takomillashtirish*. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
7. Karimov, Z. (2022). *Tadbirkorlik subyektlarini baholashda reyting tizimlarining o'ri*. O'zbekiston iqtisodiyoti, 3(47), 21-29.
8. Davletov, M. and Shamsiev, R. (2024). *Davlat xaridlari tizimini isloh qilishning huquqiy asoslari*. Yuridik fanlar jurnali, 2(18), 55-62.
9. United Nations Commission on International Trade Law (UNCITRAL) (2014). *Model Law on Public Procurement*. New York: UN.
10. Reiling, J. (2020). *Digital Tools in Government Procurement*. Journal of Public Procurement, 20(4), pp. 489–508.
11. Khasanov, F. (2021). *Elektron xaridlar portali samaradorligini tahlil qilish*. Innovatsion texnologiyalar, 2(9), 32–39.
12. European Bank for Reconstruction and Development (EBRD) (2021). *Assessment of E-Procurement Systems in Central Asia*. London: EBRD.
13. Ghosh, S. (2019). *Automated Scoring Systems in Public Procurement*. Public Money & Management, 39(6), pp. 404–410.
14. ADB (Asian Development Bank) (2022). *Procurement Governance Review: Uzbekistan*. Manila: ADB.
15. Zhang, Y. and Liu, H. (2020). *Data-Driven Approaches in Supplier Evaluation*. International Journal of Production Economics, 230, 107792.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2025. № 8**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---